



Tadqiqot.uz



ANJUMAN | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

# O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022

ISAAK NYUTON  
(1643-1727)



2022  
APREL  
№39



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir  
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.



+998 97 420 88 81



+998 94 404 00 00



[www.taqiqot.uz](http://www.taqiqot.uz)

[www.conferences.uz](http://www.conferences.uz)



**ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ  
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ  
АНЖУМАНЛАР:  
9-ҚИСМ**

---

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ  
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ  
КОНФЕРЕНЦИЙ:  
ЧАСТЬ-9**

---

**NATIONAL RESEARCHES OF  
UZBEKISTAN: CONFERENCES  
SERIES:  
PART-9**

**ТОШКЕНТ-2022**



УУК 001 (062)  
КБК 72я43

**“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]**

“Ўзбекистонда миллий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 39-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 апрель 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 18 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

**1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши**

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

**2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар**

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

**3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар**

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

**4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни**

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

**5.Давлат бошқаруви**

Доцент Шакирова Шохода Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Ёшлар ишлари агентлиги хузуридаги ёшлар муаммоларини ўрганиш ва истиқболли кадрларни тайёрлаш институти)

**6.Журналистика**

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

**7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар**

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



**8.Адабиёт**

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

**9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни**

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

**10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар**

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

**11.Жисмоний тарбия ва спорт**

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

**12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш**

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

**13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши**

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

**14.Тасвирий санъат ва дизайн**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**15.Мусиқа ва ҳаёт**

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

**16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар**

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

**17.Физика-математика фанлари ютуқлари**

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

**18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар**

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

**19.Фармацевтика**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**20.Ветеринария**

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

**21.Кимё фанлари ютуқлари**

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



**22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

**23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари**

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар**

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

**25.География**

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

*Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.*

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

**ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ**

<b>1. Sharipova Nigora Alisher qizi, Mamatqodirova Nodira O'rino</b> XIZMAT KO'RSATISH SOXASINI RAQAMLASHTIRISHNING RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) .....	7
<b>2. Маматқодирова Нодира Уриновна, Тураева Мухайё Махмудовна, Ропиева Угилой Убайдуллаевна</b> ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ .....	10
<b>3. Xaydarova E'zoza Shukurullayevna</b> MAMLAKATIMIZDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI .....	12
<b>4. Ahmadjonov Abdulloh Ahadjon o'g'li</b> FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOMIY QIMMATLI QOG'ÖZLARINING ISTIQBOLLARI BO'YICHA SO'NGGI YILLARDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN ILMIY ISHLAR TAHLILI .....	14
<b>5. Matyakubov X.B.</b> O'ZBEKİSTON FOND BOZORIDA JİSMONİY SHAXLAR İSHTIROKİ.....	16



## ИҚТИСОДИЁТДА ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

### XIZMAT KO'RSATISH SOXASINI RAQAMLASHTIRISHNING RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)

Sharipova Nigora Alisher qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

Mamatqodirova Nodira O'rinovala

Jizak shaxar 12 o'rta mакtab o'qituvchisi

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqolada xizmatlar ko'satish sohasi raqamlashtirishni turistik sohalarda tahlil qilish (turistik hudud misolida) Xorazm viloyati turistik xizmatlarni raqamlashtirishni rivojlantirish imkoniyatlari o'rganilib, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning holati tahlil qilingan hamda xizmat ko'rsatish va turizm sohasining milliy va hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli olib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Raqamlashtirish, xizmatlar sohalari, turistik xizmatlar, tashkiliy mexanizm, innovatsiya, turistik xizmatlar xususiyatlari, turistik xizmat turlari.

**ABSTRACT:** This article examines the use of digitalization in tourism (development of tourist areas) to improve the provision of tourism services in Khorezm region, analyzes the state of affairs in the field and reveals its role in improving the national stability of services and industry.

**Key words:** Digitization, areas of services, tourist services, organizational mechanism, innovation, features of tourist services, types of tourist services.

Markaziy Osiyo yuragida joylashgan O'zbekiston Respublikasi o'zining ko'plab me'moriy yodgorliklari, ajoyib tabiiy landshaftlari, saroylari, o'tmis sivilizatsiyasining qal'a xarobalari, eng yorqin madaniy tadbirlar, gastronomik zavq va mashhur hunarmandchilik ustaxonalari bilan mashhur. Birinchi tashrifingizdan bizning mamlakatimiz sizni yana va yana bu yerga kelishga undaydigan g'ayrioddiy tuyg'ularni uyg'otadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va aholi farovonligini oshirish sharotida xizmat ko'rsatish sohasida bandlikni oshirish bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti oldida turgan muhim masalalardan biridir. Xususan, mulkchilikning asosiy harakatlantiruvchi kuchi, deb e'tirof etilayotgan xizmat ko'rsatish sohasidagi bandlikni oshirishning istiqbolini belgilash, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va shu masala yuzasidan ilmiy jihatdan asoslangan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bugungi kundagi muhim yo'naliш bo'lib hisoblanadi. Ana shularni hisobga olib, mamlakatimizda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab, hozirgi kunga qadar zamon talablariga javob beradigan turistik xizmatlarni tashkil etish va rivojlantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar o'zining ijobjiy natijalarini bermoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezident Sh.M.Mirziyoyev "... Turist sayohat qilishi, ichki ishlar idoralarida sarson bo'lmasligi kerak. Agar biz turizm hisobiga ish o'rinni ochamiz desak, turistga shart qo'yish emas, balki sharoit yaratishimiz zarur, deb ta'kidlaganlar.

Shuning uchun ham, turizm sohasida tadbirkorlik faolligini rag'batlantirish va turizm bozorida raqobatni rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarni hamda turizm sohasida statistik hisobga olish tizimini takomillashtirilmoqda. Xususan, Xorazm viloyati mintaqasida turizm sohasini rivojlantirish sohadagi mavjud muammolarni hal qilishni taqozo qiladi hamda sohani keng taraqqiy qildirishning zamonaviy va yangi turlarini tadbiq qilishni talab qiladi. Bu esa Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish holatini tahlil qilish, turistik xizmatlarning yangi yo'naliшlari va istiqbollarini o'rganishni taqozo qiladi. Shuningdek, sohada me'yoriy-huquqiy jihatdan tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turistik xizmatlarni rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikasiya qilish va yangi turizm obyektlarini tashkil etish bo'yicha



birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

**Tahlil va natijalar.** Bilamizki, turistik xizmatlar turistga turistik sayohat davomida ko'rsatiluvchi, turistik ehtiyojlarini qondiruvchi, ko'zda tutilgan turizm turi maqsadiga javob beruvchi va umuminsoniy tamoyillarga javob beruvchi xizmatlar majmuidir. Mazkur xizmatlar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

asosiy turistik xizmatlar; qo'shimcha turistik xizmatlar.

Asosiy turistik xizmatlar turpaket tarkibiga kiruvchi barcha turistik xizmatlar: ovqatlantirish xizmatlari, transport va transfer xizmatlari, joylashtirish xizmatlari, gid ekskursiya xizmatlari va boshqalar kiradi.

Qo'shimcha turistik xizmatlarga turpaket tarkibiga kirmagan, turistlarni talablaidan kelib chiqib ko'rsatiladigan va qo'shimcha narx talab qiluvchi xizmatlar, ya'ni kiyimlarni kimyoviy tozalash xizmatlari, bank xizmatlari, sug'urta xizmatlari, mashinalarni ijara berish xizmatlari, kurerlik xizmatlari va boshqalar kiradi.



### 1-rasm. Turistik xizmatlar

Fikrimizcha, turistik xizmatlar quyidagi yo'naliishlardan iborat guruhlarga ajratiladi.


Ushbu xususiyatlar quyidagi mazmunga ega: turistik xizmatlar saqlanmasligi. Bu ushbu xizmatlarni saqlash mumkin emasligidir. Turistik xizmatlarning hayotiy davri moddiy tovardan tubdan farq qiladi, xususan, saqlash bosqichining mavjud bo'limganligi bilan turistik xizmatlarni saqlanmasligi bozor kon'yunkturasini yaxshilab o'rghanishni, talab va taklifiing mutanosibligini talab etadi, chunki xizmatlar talab boimagunga qadar "omborlarda" turib qaoladigan mahsulot emas.

Turistik xizmatlar nomoddiy mahsulot bo'lib hisoblanadi. Ular ijtimoiy-madaniy yoki nomoddiy sohalarga tegishli bo'ladi, chunki iste'molchining ijtimoiy-madaniy xizmatlarga bo'lgan ehtiyojini jismoniy, etnik-intellektual, ma'naviy va boshqa ehtiyojlarini qondirish bo'yicha xizmatlarni ijro etuvchilar faoliyati aniqlaydi. Ulami xarid qilish vaqtida ko'rish yoki baholash mumkin emas. Bunday xizmatlar obyekti bo'lib shaxsan iste'molchi hisoblanadi, xizmat ko'rsatish va istemol jarayonini bir vaqtda sodir bo'lishi. Xizmatlar iste'molchi va ijro etuvchilaming o'zaro ta'siri natijasida tashkil topganligi sababli, turistik xizmatlarni ko'rsatish jarayoni iste'mol bilan birga parallel ravishda yuz beradi.

sifatning doimiy emasligi. Xizmatlar sifati ko'p hollarda manbaning holati, uning malakaviy tajribasi, kayfiyatiga bog'liq bo'ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyati bo'yicha turistik xizmatlar bozori holatini tahlil qilib chiqamiz. Xorazm viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish maqsadida 2020-yil davomida mahalliy va xorijiy tashabbuskorlar tomonidan umumiyligi qiymati 114,9 mlrd. so'm (o'z mablag'lari 31 mlrd. so'm, bank krediti 40,2 mlrd. so'm, xorijiy investitsiya 43,7 mlrd so'm) miqdoridagi jami 50 ta loyihibar amalga oshirilib, natijada 358 nafar yangi ish o'rnlari yaratildi.

Xorazm viloyatida 2020-yilda jami 168 ta joylashtirish vositasi (4757 nomer fondiga ega) mavjud bo'lib, 2021-yilda 197 ta joylashtirish vositasiga (6426 nomer fondiga ega) yetkazish reja qilingan. 2020-yilda jami 62 ta turoperator, 138 ta gid ekskursovodlar faoliyat ko'rsatdi. Viloyatimizda 2020-yilda 293 ta turistik transport vositalari mavjud bo'lsa, 2021- yilda esa ularning sonini 314 taga yetkazish maqsad qilingan.



**2-rasm. Joylashtirish vositalari sonining 2017-2020-yillar davomidagi o'sish grafigi**

Ushbu rasmga asosan, viloyatda joylashtirish vositalari sonining 2017-2020-yillar davomidagi o'sish ko'rsatilgan va bu turistik xizmatlarni rivojlantirish imkoniyatini belgilaydi.

1-jadval Xorazm viloyatida turistik xizmatlardan keladigan daromadlar o'zgarish dinamikasi (mln. so`mda)

Xizmatlar turlari nomi	Yillar		
	2018	2019	2020
Transport xizmatlari	1241862,3	1431791,9	1596372,1
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	105408,5	147656,6	145224,6

Viloyatida transport xizmatlarini ko'rsatishdan kelgan daromad yillik qariyb 10 % ga o'sish suratini ko'rsatmoqda. 2020-yilda ovqatlantirish va joylashtirish xizmatlaridan olinadigan daromad koronavirus pandemiyasi tufayli sezilarli darajada kamaygan. Budjetga valyuta tushishi hisobiga turizm iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi, mintaqalar infratuzilmasi, yangi ish joylari yaratish, o'zbek xalqiga.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar**

1. Turizm to'grisidagi qonun “Xalq so'zi” gazetasi № 147 19.07.2019. 1-bet.
2. M.R.Boltabayev, I.S.Tuxliyev, B.Sh.Safarov, S.A.Abduxamidov Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik 114-bet
3. Розанова Т.П. Туристские услуги в системе потребительского рынка национальной экономики / Рос. экон. акад. им. Г. В. Плеханова. - М.: Кнорус, 2005. 105 с
4. Основы туризма: учебник / А.С.Кусков, Ю.А. Джалаадян. - М.: КНОРУС,



## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ

Маматкодирова Нодира Уриновна  
Тураева Мухайё Махмудовна  
Ропиева Угилой Убайдуллаевна  
Преподавательницы средней  
школы №12 г. Джизак

**Аннотация.** В статье исследуется влияние информационно-коммуникационных технологий на учебный процесс высшего образования. Исходя из стратегических целей Концепции развития высшего образования до 2030 года, анализируются современные формы и возможности цифровых технологий в организации образовательного процесса. Главной идеей данной статьи является эффективное использование возможностей ИКТ в повышение качества образования.

**Ключевые слова:** высшее образование, информационно-коммуникационные технологии, цифровые технологии, качество и эффективность образования, интернет.

Создавая цифровую индустрию будущего сегодня, человеческий капитал требует запуска цифровой трансформации страны путем повышения уровня развития, быстрой цифровой трансформации в образовании.

Сегодняшние классы сильно отличаются от тех, что были десять лет назад, и классы оснащены компьютерами, планшетами, смарт-досками и другими типами образовательных технологий. В Узбекистане, как и в других уголках мира, появилось семь поколений цифровых экранов – телевизор, компьютер, планшет, планшет, фаблет, смартфон и умные часы. Такое плотное число в результате наличия среды и постоянного взаимодействия с ней процессы мышления и обработки информации сегодняшних студентов радикально отличаются от прежних процессов мышления и обработки информации. Цифровое поколение не может и не должно обучаться в стиле наших родителей. В обучении этого поколения нельзя использовать доску и белый мел. Замена доски на белую, а борной на маркер ничего не меняет, т.е. не может быть способом мотивировать современных школьников к получению знаний и развитию навыков для достижения успеха на рынке труда.

Необходимо адаптировать систему образования к цифровому поколению за счет массового и эффективного использования инновационных образовательных технологий и дидактических моделей на основе информационно-коммуникационных технологий. При этом в образовательном процессе следует активно использовать исследовательский подход, тем самым развивая у студентов навыки исследовательской деятельности и формируя их творческие способности и творческое мышление на основе ИТ-компетенций. Информационно-коммуникационные технологии – это не решение всех проблем в системе образования, а средство сделать лекции и семинары для цифрового поколения насыщенными и интерактивными. Также следует отметить, что преподаватели сохраняют за собой ключевую роль в интерактивном учебном процессе, ориентированном на потребности учащихся.

Указ Президента Республики Узбекистан № ПФ-6079 от 5 октября 2020 г. «Об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации» [1], Указ № ПФ-5847 от 8 октября 2019 г. «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», онлайн, «смешанное обучение», «широкое внедрение технологий перевернутого класса» [2].

Развитие информационных и коммуникационных технологий привело к появлению электронного обучения. Электронное обучение (сокращенно E-Learning) означает обучение с помощью информационных и электронных технологий.

ЮНЕСКО определяет электронное обучение следующим образом: Электронное обучение – это обучение через Интернет и мультимедиа.

Электронное обучение включает в себя:

- самостоятельная работа с электронными материалами на телевизорах, DVD, мобильных телефонах, персональных компьютерах и других устройствах;
- удаленно (дистанционно) удаленно участвовать в удаленном общении получать советы, рекомендации и оценки от местных экспертов (учителей);



- социальные сети, организующие виртуальные учебные мероприятия создание сообществ пользователей;
- своевременная и ежедневная доставка электронных учебных материалов (стандартов электронных учебных материалов, специальных средств дистанционного обучения) и т.д. Эти технологии смешанного обучения и перевернутого класса являются одним из инструментов организации электронного обучения.

В целом расширение сферы применения ИКТ в высшей школе спрос на период. По мнению мировых экспертов, в будущем потребность в ИТ-специалистах будет возрастать. Поэтому в своем Послании Олий Мажлису от 24 января 2020 года глава нашего государства выдвинул предложение о реализации проекта «Миллион программистов». Поэтому мы также должны стремиться вращивать высококвалифицированные кадры за счет внедрения ИКТ, несмотря на существующие недостатки и препятствия, в русле мирового развития.

### **Использованная литература**

1. Указ Президента Республики Узбекистан №ПФ-6079 от 5 октября 2020 года “Об утверждении Стратегии “Цифровой Узбекистан -2030” и мерах по ее эффективной реализации”.
2. Указ Президента Республики Узбекистан №ПФ-5847 от 8 октября 2019 года “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030года.
3. Абдуллаев, М., Саидахор, Г., И. Аюпов (2020). Цифровая экономика-актуальные направления подготовки кадров. Архив научных исследований, 1(23). открытие <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/2702>.
4. Абдуллаев, М. (2020). Важность использования цифровых технологий в обучении студентов. Архив научных исследований, 1(3). открытие <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/view/3536>
5. Аллярова С.Н. Информационно-коммуникационные технологии-фактор повышения качества и эффективности высшего образования // Современное образование / Современное образование 2020, 4 (89), С. 10-19.



## MAMLAKATIMIZDA QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING INNOVATSION SALOHIYATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARI

Xaydarova E'zoza Shukurullayevna  
Toshkent arxitektura va qurilish instituti

**Annotatsiya:** ushbu maqolada mamlakatimizda qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini boshqarish samaradorligini baholash metodlari va sanoat korxonasining innovatsion salohiyatini to'laqonli ob'ektiv baholash jarayoni, birinchidan, uni tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlar tarkibini aniqlash, ikkinchidan esa, ularga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning ta'sir etish darajasini o'lchashdan tashkil topishi bo'yicha ilmiy taklif va tavsiyalar taqdim etigan.

**Kalit so'zlar:** qurilish materiallari, sanoat, innovatsiya, salohiyat, samaradorlik.

Respublikamiz mustaqilligi yillarda iqtisodiyotning boshqa soha va tarmoqlar qatori qurilish materiallari ishlab chiqarish sanoati ham jadal taraqqiy etdi. Davlatimiz rahbarining tashabbuslari va ezgu g'oyalari bilan bugun mamlakatimizning barcha shahar va tumanlarida keng ko'lamdag'i qurilish-bunyodkorlik, yaratuvchanlik ishlarining jadallik bilan olib borilayotganligi, qurilish tarmog'i va hajmi yil sayin rivojlanib borayotganligi sohani yanada taraqqiy ettirishni taqoza etmoqda. Milliy iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini ta'minlab bera oladigan davlat siyosatini amalga oshirish O'zbekiston Respublikasi uchun ancha murakkab, ayni vaqtida dolzarb va yechilishi muqarrar bo'lgan vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 20- fevraldag'i PQ-4198-soni "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini yanada qisqartirish, qurilish materiallari sanoatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, mahalliy xom ashyni chuqur qayta ishlashni tashkil etishni rag'batlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish, tarmoqqa investitsiyalarni jalg qilish, shuningdek, 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi va O'zbekiston Respublikasida Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish maqsadida qabul qilindi.[1]

Yana bir muhim jihat borki, oxirgi yillarda qurilish sohasidagi ishlar holatini o'rganish orqali islohotlarni jadal amalga oshirishga va sog'lom raqobat muhitini rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar bartaraf etildi. Sohani texnik tartibga solishning normativ bazasini isloh qilishda geologik, tabiiy-iqlim, seysmologik xususiyatlarni inobatga olgan holda milliy qurilish normalari qayta ko'rib chiqilib, xorijiy normativ-texnik hujjatlarga moslashtirilishiga alohida e'tibor berilmoqda. Mana shu moslashuv amaliyotda qo'llanilib, qurilish sohasiga innovatsiyalar joriy etildi. Korxonaning iqtisodiy hayotiy sikli innovatsion salohiyatni baholashda va uning raqobatbardoshligini aniqlashda muhim tarkibiy qism sifatida qaraladi va mavjud iqtisodiy salohiyatdan foydalilaniganlik natijasi, uni yanada rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Ilmiy adabiyotlarda «iqtisodiy salohiyat» tushunchasining bir qancha talqinlari mavjud. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'rsatilishicha, «innovatsion salohiyat» atamasi birinchi marta K.Frimen tomonidan qo'llanilgan. Olim salohiyatni ma'lum bir sharoitda anik ayrim maqsadlar uchun safarbar qilishini ma'lum qilingan. Shuningdek, mualliflar iqtisodiy salohiyatning «innovatsion salohiyat» kabi kategoriya bilan o'zaro aloqalariga turlicha qaraydi. Masalan, iqtisodiy salohiyatni milliy iqtisodiy tarmoqlarining barcha imkoniyatlari sifatidagi talqini L.I.Lopatnikova, L.P. Kurakova, V.N. Mosina va D.M. Kruk iqtisodiy salohiyatni - «xalq xo'jaligining sanoat, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi, kapital qurilishni amalga oshiruvchi, yuk tashish va aholiga xizmat ko'rsatish sohalaridagi barcha imkoniyatlar» sifatida talqin etiladi [2]. Shuningdek, B.Plishevskiy, A.V. Todoseychuk, Yu.Lichkin va A. Sigichko kabi MDH olimlari iqtisodiy salohiyatning amalda mavjud bo'lgan barcha mehnat, investitsion, moliyaviy resurslar sifatida talqin etishadi6 hamda «salohiyat» tushunchasini mazmuni jihatdan «resurslar», «investitsiya», «investitsion resurslar», «ish bilan bandlar soni» kabi tushunchalar bilan o'rnini almashtirishadi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining innovatsion salohiyatini samaradorlikni baholash muhim element joriy tuzilmaning, ishlab chiqilayotgan loyihamalar yoki rejalashtirilgan tadbirlarning



progressivlik darajasini aniqlashga imkon beruvchi dizayn va rejalashtirish yechimlarini ishlab chiqish va tuzilmaning eng oqilona versiyasini yoki uni takomillashtirish yo'lini tanlash maqsadida amalga oshiriladi. Samaradorlik tashkiliy tuzilma boshqaruvni takomillashtirish chora-tadbirlarini rejalashtirish va amalga oshirish uchun mavjud korxonalarining boshqaruv tuzilmalarini tahlil qilishda loyihalash bosqichida baholanishi kerak. Samaradorlikni baholashga yondashuv turli xil variantlar tashkiliy tuzilma boshqaruv tizimining xarakteristikasi sifatidagi roli bilan belgilanadi. Boshqaruv tizimining samaradorligi mezonlarining kompleks to'plami uning faoliyatini baholashning ikkita yo'nalishini hisobga olgan holda shakllantiriladi:

- erishilgan natijalarining ishlab chiqarish-xo'jalik tashkilotining belgilangan maqsadlariga muvofiqligi darajasiga ko'ra (rejalashtirilgan ko'rsatkichlarni bajarish darajasidan boshlab);

- tizimning ishlash jarayonining uning mazmuni, tashkil etilishi va natijalariga qo'yiladigan ob'ektiv talablarga muvofiqligi darajasiga ko'ra.

Boshqaruv jarayonining samaradorligini baholashda miqdoriy va sifat jihatidan baholanishi mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar qo'llaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar me'yoriy xususiyatga ega bo'lib, tashkiliy tuzilma bir yoki bir qator samaradorlik ko'rsatkichlarini yaxshilash yo'nalishi bo'yicha o'zgarganda, qolganlari o'zgarishsiz qolsa, samaradorlik va chekllovlar mezoni sifatida foydalanish mumkin. Shunday qilib, boshqaruv samaradorligi boshqaruvni takomillashtirishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, boshqaruv natijalari va ularga erishish uchun sarflangan resurslarni taqqoslash yo'li bilan aniqlanadi. Olingan foya va boshqaruv xarajatlarini solishtirish orqali boshqaruv samaradorligini baholash mumkin.

Innovatsion salohiyatni o'rganish bo'yicha o'tkazgan tadqiqotlarimiz natijalari asosida biz innovatsion salohiyatni aniqlashda quyidagi asosiy yondashuvlarni qayd etishimiz mumkin:

- innovatsion faoliyatni amalga oshirishga jalb qilinishi mumkin bo'lgan resurslar majmui sifatida;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyati sifatida;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik sifatida;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish imkoniyati va tayyorgarligi sifatida;

- innovatsion faoliyatni amalga oshirish qobiliyati sifatida.(1-rasm)

### INNOVATSION SALOHIYATNI BOSHQARISH

Qobilivat va tayyorlik

Imkoniyat

Resurslar majmui

#### 1-rasm.Innovatsion salohiyatni boshqarishning yondashuvlari

Boshqaruv tizimining samaradorligini baholash uchun me'yoriy sifatida qabul qilingan taqqoslash yoki samaradorlik darajasini aniqlash uchun asosni tanlash muhim ahamiyatga ega. Differensiatsiyalash usullaridan biri boshqaruv tizimlarining mos yozuvlar versiyasining tashkiliy tuzilmasining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar bilan taqqoslashga qisqartiriladi. Malumot versiyasi boshqaruv tizimlarini loyihalash uchun barcha mavjud usullar va vositalar yordamida ishlab chiqilishi va ishlab chiqilishi mumkin. Ushbu variantning xarakteristikalari normativ sifatida qabul qilinadi. Tashkiliy tuzilma samaradorligining maqbul yoki etarli darajasini belgilaydigan mezon sifatida tanlangan boshqaruv tizimining ishlash ko'rsatkichlari va xususiyatlari bilan taqqoslash ham qo'llanilishi mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston respublikasi prezidentining qarori. Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida. 2019 yil 20- fevraldag'i PQ-4198-sonli
2. Горшков Р. К. Инновационно – ресурсный потенциал предприятия: вопросы теории и методологии. Монография / Р. К. Горшков. – М. : ЭкслибрисПресс, 2005. – 102 с.
3. Фатхудинов Р.А. «Инновационный менеджмент» Учебник. 5-е. изд.- Спб. Питер, 2005
4. Yo'ldoshev N.Q. va boshqalar. «Innovatsion menejment». Darslik. TDIU. 2011 y. –



**FOND BOZORINI RIVOJLANTIRISHDA ISLOMIY QIMMATLI QOG’OZLARINING  
ISTIQBOLLARI BO’YICHA SO’NGGI YILLARDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN  
ILMIY ISHLAR TAHLILI**

**Ahmadjonov Abdulloh Ahadjon o’g’li**  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistranti  
Telefon: +998(94)687 21 81  
akhmadjonovabdullokh@gmail.com

**Anotatsiya** Islom moliyasi va islomiy qimmatli qog’ozlarni O’zbekistonga joriy qilishda me’yoriy, huquqiy asoslar ishlab chiqilayotganli va bungacha bir qancha qadamlar bosib o’tilganligini ko’rishimiz mumkin. Islom moliyasi va islomiy qimmatli qog’ozlarni O’zbekistonga joriy qilishda bir qancha xorijiy olimlarning ilmiy izlanishlari va chet mamlakatlarining islom moliyasini iqtisodiyotiga qay tartibda tadbiq etganlaridan xulosalar chiqargan holda, iqtisodiyotimizga joriy qilish istiqbollarini ko’rishimiz mumkin.

**Kalit so’zlar** Islom moliyasi, islomiy qimmatli qog’ozlar, islom fond bozori, rivojlanayotgan moliyaviy bozorlar, kredit uyushmalar, oltin, fond birjalari, moliya bozori

Islom banki shariat tamoyillariga mos keladigan moliyaviy faoliyatdir. Islom bankining asosiy xususiyati bu kredit miqdori va muddatiga qarab hisoblangan foizlar yoki stavkalarni olishni taqiqlash hisoblanadi. Ushbu taqiq musulmonlarning ijtimoiy adolat va tenglik to‘g‘risidagi qonunlari bilan izohlanadi. Islom bank faoliyati esa bu shariat tamoyillariga mos keladigan moliyaviy faoliyat.

Islom moliyasi mexanizmlarini O’zbekiston iqtisodiyotiga joriy qilish harakatlari boshlangan deb hisoblash mumkin. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Islom taraqqiyot banki guruhi va Arab muvofiqlashtirish guruhi jamg‘armalari bilan hamkorlikni yanada kengaytirish va chuqurlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019-yil 5-martdagি PQ-4224-son qarori ham qabul qilindi.

2020-yil 29-dekabrdagi O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning parlamentga qilgan murojatnomasida<sup>1</sup> Mamlakatimizda Islom moliyaviy xizmatlarini joriy etish bo‘yicha huquqiy bazani yaratish vaqt-soati yetib keldi. Bu borada Islom taraqqiyot banki va boshqa xalqaro moliya tashkilotlari ekspertlari jalb etilishini ta’kidlab o’tgan edi. Shuningdek Markaziy bankka moliya bozorida raqobatni kuchaytirish, shuningdek, islomiy moliya mexanizmlarini joriy etish maqsadida huquqiy asos yaratish uchun 2021-yil 1-fevralgacha nobank kredit tashkilotlari to‘g‘risidagi qonun loyihasini ko‘rib chiqish topshirig‘ini berilgan edi.

Nisbatan yangi hisoblangan Islom moliyasi tizimi va islomiy qimmatlar qog’ozlar haqida asosan yaqin sharq olimlari o’zlarini ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Aktham Maghyereh va Hussein Abdoh 2006–2019 yillar davomida oltin va islom qimmatli qog’ozlari o‘rtasidagi daromadning dinamik bog‘liqligini ko‘rib chiqishgan<sup>2</sup>. Buning natijalari shuni ko’rsatganki, oltin o’rta va uzoq muddatli istiqbolda islom portfellari uchun diversifikator, to’siq yoki xavfsiz vositasi sifatida ishlamaydi, ayniqsa oltin bozorining pasayish va ko’tarilish sharoitiida degan fikrni ilgari surgan.

Matiur Rahmanning “O’zaro va betaraflik bilan islom bank ishi: muvozanatga asoslangan nazariy asos” maqolasida quydagilarni bayon qilgan<sup>3</sup>. Yirik kredit uyushmalarida isbotlangan o’zaro va betaraflik xususiyatlarini o’z ichiga olgan islom banklari uchun balansga asoslangan oddiy nazariy modelni ishlab chiqishdan iborat. Natijalar shuni ko’rsatadiki, qimmatli qog’ozlarning kutilayotgan o’rtacha daromadliligi, kredit stavkasi va depozit stavkasining nisbiy o’zgarishiga javoban shariatga muvofiq qimmatli qog’ozlarga investitsiya va ruxsat etilgan kreditlashning maqbul kombinatsiyasi bo‘lib hizmat qiladi. Aksincha, islom banklari ssudalar va qimmatli qog’ozlarning optimal kombinatsiyasini, agar u salbiy iqtisodiy shoklardan kelib chiqmasa, xavf ortishi sababli o’zgartirishga moyil emas. Ushbu hujjatning xulosalarini islom banklari va boshqa tadbirkorlik sub’yektlari uchun potentsial siyosatga ta’sir qiladi.

Bruce Hearn va Roger Strangedlarning “Islom taraqqiyotini moliyalashtirishda fond

1 O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni 2018 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi (<https://president.uz/uz/lists/view/2228>)

2 Atkham Maghyereh, Hussein Abdoh, “Tail dependence between gold and Islamic securities “ Finance Research Letters January 2021, 101503. <https://doi.org/10.1016/j.frl.2020.101503>

3 Matiur Rahman,” Islamic banks with mutuality and neutrality: A balance-sheet-based theoretical framework”, The Quarterly Review of Economics and Finance, August 2021, Page 494. <https://doi.org/10.1016/j.qref.2018.02.001>



bozorining roli: Sudan tajribasi” maqolasida Sudanning shariatga muvofiq islom iqtisodida fond birjasinining ahamiyatini baholashgan<sup>1</sup>. O’rganishlar shuni ko’rsatadiki, islomiy moliyaviy vositalar hamkorlikka urg’u berish orqali rivojlanishni moliyalashtirishni osonlashtirishda katta salohiyatga ega bo’lsa-da, bunga Xartum fond birjasи emas, balki bank tizimi ustuvorlikni kasb etgan. Sudan Telecommunications kompaniyasining amaliy tadqiqoti shuni ko’rsatadiki, boshqa joylarda o’zarо ro’yxatga olish imkoniyatiga ega bo’lgan yirik firmalar o’zlarining ichki bozorlarini afzal ko’rgan holda mintaqaviy bozorlarni tanlashlari mumkin, bu esa kapitalning arzonligidan foyda oladi. Biroq, boshqaruв imtiyozлari islomiy moliya hamkorligi kontseptsiyasiga rioya qilgan holda aksiyadorlarni ma’qullashi mumkin degan fikr yuritishgan.

Sayfiddin Erdog’an, Emrah Ismoil Chevik olimlar tадqiqotlarida kapital bozorlari va makroiqtisodiy o’zgaruvchilar o’rtasidagi munosabatlarga oid empirik ma’lumotlardan an’anaviy va islomiy moliyaviy tizimlarni rivojlantirish siyosatini belgilashda ma’lumotlar manbalari sifatida foydalanishgan<sup>2</sup>. Ushbu tадqiqotning maqsadi 2013-2019 yillar davri uchun kundalik ma’lumotlardan foydalangan holda uchta yirik rivojlanayotgan bozorlarda, ya’ni Hindiston, Malayziya va Turkiyada valyuta bozorlari va islomiy fond bozorlari o’rtasidagi o’zgaruvchanlikning yon ta’siri bor yoki yo’qligini o’rganishdan iborat bo’lgan. O’zgaruvchanlikning nojo’ya ta’siri Hafner va Hervarts tomonidan ishlab chiqilgan sabab-oqibat testi yordamida tekshirilgan<sup>3</sup>. O’zgaruvchilar o’rtasidagi munosabatlarning tabiatini va uning vaqt o’tishi bilan o’zgarishini o’rganish uchun vaqt bo’yicha o’zgaruvchan test statistikasi harakatlanuvchi namunalar yordamida baholangan. Islom fond bozoridan valyuta bozoriga o’zgaruvchanlikning tarqalishiga dalillarni faqat Turkiyada misolida ko’rishgan. Vaqt o’zgaruvchan test natijalari ma’lum davrlarda valyuta kurslari va islom fond bozori o’rtasida kamida bitta yo’nalishda o’zgaruvchanlikning tarqalishini ko’rsatadi degan fikrni ilgari surishgan.

Islom moliyasiini mamlakatimiz iqtisodiyotiga joriy qilishda va islomiy qimmatli qog’ozlarni chiqarishda o’ziga xos risklarni inobatga olgan holda jahon tajribasini, jumladan yaqin sharq mamlakatlari tajribalarini o’rgangan holda, mukammal huquqiy asos ishlab chiqish kerak deb hisoblayman. Hozirgi kunda xalqimiz diniy qarashlari sabab an’anaviy moliyaviy instrumentlarga mablag’larini kiritmayapti. Buning natijasida iqtisodiyot rivojlanishi sekinlashadi. Agarda islomiy banklar mamlakatimizda faoliyatini boshlasa, o’ylaymanki aholimiz bo’sh turgan pul mablag’larini shunday islomiy banklarga qo’yishlari yoki islomiy qimmatli qog’ozlarni xarid qilishlari yuqori suratlarda rivojlanadi. Yuqoridagi olimlarning ilmiy ishlarini o’rgan holda shuni ham aytish mumkinki islom banklar ham risklardan holi emas va bu o’z navbatida baribir jahon tajribasini o’rgan holda mamlakatimizga kerakli qismlarini olishimiz kerak ekanligini ko’rsatadi. Bu o’z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyotida yangi sahifa ochilishi va yanada rivojlanishiniga o’zini tasirini o’tkazdi deb o’ylayman.

### Foydalilanigan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni 2018 yil 29 dekabrdagi Oliy Majlisga Murojatnomasi <https://president.uz/uz/lists/view/2228>
2. Atkham Maghyreh, Hussein Abdoh, “Tail dependence between gold and Islamic securities”, Finance Research Letters January 2021, 101503.
- 3 Matiur Rahman,” Islamic banks with mutuality and neutrality: A balance-sheet-based theoretical framework”, The Quarterly Review of Economics and Finance, August 2021, Pages 494-495.
4. Bruce Hearna, Roger Stranged, “The role of the stock market in the provision of Islamic development finance: Evidence from Sudan”, Emerging Markets Review Issue 4, December 2011, Pages 338-353.
5. Sayfiddin Erdog’an, Emrah Ismoil. “Volatility spillover effects between Islamic stock markets and exchange rates: Evidence from three emerging countries”, Borsa Istanbul Review, Issue 4, December 2020, Pages 322-333.
6. Economics Letters Issue 1, October 2006, Page 137

1 Bruce Hearna, Roger Stranged, “The role of the stock market in the provision of Islamic development finance: Evidence from Sudan”, Emerging Markets Review Issue 4, December 2011, Page 342. <https://doi.org/10.1016/j.ememar.2011.04.004>

2 Sayfiddin Erdog’an, Emrah Ismoil. “Volatility spillover effects between Islamic stock markets and exchange rates: Evidence from three emerging countries”, Borsa Istanbul Review, Issue 4, December 2020, Page 333, <https://doi.org/10.1016/j.bir.2020.04.003>

3 Economics Letters Issue 1, October 2006, Page 137 <https://doi.org/10.1016/j.econlet.2006.04.008>

## O'ZBEKISTON FOND BOZORIDA JISMONIY SHAXLAR ISHTIROKI

**Matyakubov X.B.**

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti

«Davlat moliyasi va xalqaro moliya»

magistratura mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

Tel:+998946013100

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy ish natijalariga bag'ishlangan tezisda bugungi kunda davlatimiz fond bozorida jismoniy shaxslarning ishtiroki, o'rni haqida fikr-mulohazalar yuritiladi.

**Kalit so'z va iboralar:** fond bozori, jismoniy shaxs, yuridik shaxs, iqtisodiy tizim, qimmatli qog'oz.

Hozirda iqtisodiy jadallahuv jamiyatida yashar ekanmiz, bevosita turli jabhalarda yuridik va jismoniy shaxslarning ishtirokiga ko'zimiz tushadi. Ayni o'rinda xalqaro tajribalarda qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotning turfa tarmoqlari uchun zaruriy investetsiyalarni jalg qilishning muhim manbai ekanini ta'kidlash lozimdir. Bu esa bank krediti orqali moliyalashtirishning muqobili deya ayta olamiz. Ana shuning uchun ham qaysi davlat bo'lishidan qat'iy nazar iqtisodiy tizimining holati fond bozoridagi faolligi bilan baholanadi. Aynan mana shu bozorda biz yurdik shaxslarning ham jismoniy shaxslarning ham ishtirokini ko'rishimiz mumkin. Mazkur bozorda yuridik yoxud jismoniy shaxslar o'zlarida mavjud mablag'arini kelajakda foyda ko'rish, foyda olish uchun aksiya yoki birorta qimmatli qog'ozlarga qarata yo'naltiradi, ya'ni ularni sotib olib foyda ko'rishni ko'zlaydi. Qimmatli qog'ozlar ortidan foyda olish uchun divident yoki bo'lmasa foiz ko'rinishida, bulardan tashqari ularni ikkilamchi ravishda yuqoriroq bahoga sotish evaziga ham amalga oshirsa bo'ladi. Bu borada bizni davlatimizda ham shart-sharotlar mavjudmi yoki yo'qmi, ayni shu masalada fikr yuritmoqlik joizdir.

Bu borada hozirda mamlakatimizda qator yangiliklarga murojaat etilib, fond bozorida jismoniy shaxslarning roliga imkoniyatlар berilmoqda. Xususan, «Toshkent» respublika fond birjasi rahbariyati tomonidan berilgan ma'lumotlarga tayanib, quyidagicha mulohazalarga kelish mumkin, ya'ni bu o'rinda Janubiy Koreya davlati birjasi bilan yo'lga qo'yilgan hamkorlikka to'xtalish o'rini bo'ladi. Bu hamkorlik natijasida ishga tushirilgan yagona dasturiy-texnik majmua bir qator afzallik va qulayliklarni yaratdi. U savdo, brokerlik, hisob-kitob, kliring, depozitar hamda nazorat tizimlarini o'zida jam qildi. Bu yagona majmua, eng avvalo, qimmatli qog'ozlar bozorida ortiqcha hujjatlarning qog'oz shakldagi aylanmasiga nuqta qo'ydi. Avvallari bitimlarni amalga oshirish jarayonlarida bir necha kunlik harakat qilingan bo'lsa, yagona majmuaning yaratilishi bilan bu kunlar bir necha daqiqalarga aylandi. Eng asosiysi, savdolarning barchasi xalqaro standartlarga to'laqonli javob bergen holda o'tkazib kelinmoqda. Mana shu yerda bu savdo tizimining jismoniy shaxslar uchun qulayligi haqida alohida ta'kidlash lozim. Bunda jismoniy shaxslar uchun qulaylik mobil ilova orqali savdolashish va hisob raqamini mustaqil o'zi boshqarishi hamda bu mobil ilovaning to'lov tizimi vositasiga murojaat qilib, hisoblarini to'ldirishida ham ko'rindi. Bu jarayonda yana asosiy e'tiborga loyiq jihatlardan biri shuki, avvallari har bir topshiriq bo'yicha alohida shartnomaga tuzilishi qoidasi mavjud edi. Xuddi shu qoidaga bu jarayonda bo'ysunilmaydi. Ya'ni alohida shartnomaga tuzilishi qoidasi o'z kuchini yo'qtdi. Ilgari investor yil mobaynida 10 marotaba olgan yoki sotgan bo'lsa, broker bilan ham shuncha shartnomaga tuzishga majbur bo'lardi. Aksiyalarning hisobi va saqlanishini ta'minlash mzasadida ham depozitariy bilan ham shartnomaga tuzilardi. Endilikda bunday ishlar soni qisqartirildi. Qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi ishlari, aksiyani olish yoki-da olmaslik, sotish yoxud sotuvga chiqarmaslik to'g'risidagi barcha qo'shimcha topshiriqlar osongina va qulaygina elektron pochta, telefon yoki faks orqali mavjud tartib asosida berilish imkoniyat yaratildi. Bu sanalgalardan tashqari, investetsiya vositachisi va uning mijoji bilan orasida uzaytirish imkoniyati bilan bir yilga tuziladigan brokerlik va depozitar xizmatlar ko'rsatish bo'yicha namunaviy shartnomaning qonunga binoan ishlab chiqilgani ham ahamiyatlidir. Shu bilan bir qatorda bu namunaviy shartnomaga amaliyatga ham tadbiq etilishi ham e'tirof etiladigan holat.

Mazkur tizim orqali fond birjasida kliring netting usuli tomon yo'loldi. Kliring qimmatli qog'ozlar savdosining tashkilotchilari tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan qimmatli qog'ozlarga oid bitimlar bo'yicha o'zaro majburiyatlarni aniqlash, aniqlashtirish va hisobga olish desak to'g'ri bo'ladi.



Aniqroq aytadigan bo‘lsak, tizimda investor bir korxonaga tegishli aksiyani sotib oladi va uni shu zahotiqoq sotib yuborishi ham mumkin. Bunday jarayon bir savdo sessiyasi mobaynida bir necha marta takrorlanishi uchun muayyan sharoit yaratilgan, so‘nggiga borib savdolar yakuni bo‘yicha elektron tizim yordamida kun davomida savdolar jarayonida qatnashgan hamma tomonlarning pul talablari-yu majburiyatlariga aniqlik kiritilib, hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi.

Endigi navbatda nettingning afzalligiga diqqat qaratish o‘rinli bo‘ladi. Chunki netting o‘z afzalligini investorlarning vaqt hamda mablag‘larining tejab qoltinganida o‘zini namoyon qiladi. Fond birjasining ustuvor vazifasi sifatida belgilangan ushbu talablarning bajarilishini ta’minlash maqsadida savdo ko‘lamini kengaytirish, buning uchun investorlarga mavjud qulayliklarning safini orttirish va qulay shart-sharoitlarni tarkib toptirish ijobiy yutuqlarga sabab bo‘ladi.

Aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog‘ozlariga bo‘lgan talab hamda aholining ishonchi tobora ortib borayotagnini nazardan chetda qoldirmagan holda va o‘z bo‘sh pul mablag‘lariga qimmatli qog‘ozlarni sotib olishga intilayotganligi sababli fond birjasi umumiy savdo aylanmasida jismoniy shaxslarning ulushi yanada ortadi deyish mumkin. Bugungi kunda iqtisodiy sohaning dolzarb mavzularidan biri ham fond bozoriga aholini jalb etilish masalasidir. Ayi shu sababda qimmatli qog‘ozlarga nisbatan aholining qarashlarini kengaytirish, uning afzal jihatlari bilan ommani keng doirada tanishtirish va tushunarli bo‘lgan «til»da yetkazish hamda bu borada soha mutaxassislarining amaliy ishlarini orttirish kelajakda fond bozorida aholi - jismoniy shaxslar ishtirokiga nisbatan ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi.

### Foydalaniman adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.A.Klyachkov., L.A.Chaldayeva. «Рынок ценных бумаг и биржевое дело». М., «Юрист», 2005.
2. Sh.Sh.Shoxa’zamiy. «Биржевая деятельность». Т., «IlmZiyo», 2006.

# **ЎЗБЕКИСТОНДА МИЛЛИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 9-ҚИСМ**

**Масъул мухаррир:** Файзиев Шохруд Фармонович  
**Мусаҳҳих:** Файзиев Фаррух Фармонович  
**Саҳифаловчи:** Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 30.04.2022

**Контакт редакций научных журналов.** tadqiqot.uz  
ООО Tadqiqot, город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Tel: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000